

## LITVA-ROSSIYA MUNOSABATLARIDA KALININGRAD MUAMMOSI

*Iuldashev Ulugbek Kadirjanovich*  
“University of Business and Science” oliy ta'lim muassasi o'qituvchisi

*Annotatsiya: Ushbu maqolada Kaliningrad viloyati masalasida Litva va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi munosabatlar har tomonlama tahlil qilinadi. Shu orqali ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning muhim jihatlari o'rganiladi. Bu masalada boshqa tomonlarning ta'siriga ham e'tibor qaratiladi.*

*Kalit so'zlar: Kaliningrad, Litva, Rossiya, tranzit, YI, NATO*

## КАЛИНИНГРАДСКАЯ ПРОБЛЕМА В ЛИТОВО-РОССИЙСКИХ ОТНОШЕНИЯХ

*Юлдашев Улугбек Кадыржанович*  
Высшее учебное заведение “University of Business and Science”, преподаватель

*Аннотация: В данной статье всесторонне анализируются отношения Литвы и Российской Федерации по вопросу Калининградской области. Таким образом, будут изучены важные аспекты отношений между двумя странами. В этом вопросе также уделяется внимание влиянию других сторон.*

*Ключевые слова: Калининград, Литва, Россия, транзит, ЕС, НАТО.*

## KALININGRAD PROBLEM IN LITHUANIA-RUSSIA RELATIONS

*Iuldashev Ulugbek Kadirjanovich*  
Higher educational institution “University of Business and Science”, teacher

*Abstract: This article comprehensively analyzes the relations between Lithuania and the Russian Federation regarding the issue of the Kaliningrad region. In this way, the important aspects of relations between the two countries will be studied. In this matter, attention is also paid to the influence of other parties.*

*Key words: Kaliningrad, Lithuania, Russia, transit, EU, NATO*

Kirish. Bizga ma'lumki, Sovet Ittifoqi parchalanib ketgach, mustaqillikka erishgan davlatlar o'rtasida turli chegara muammolari va hududiy mojarolar kelib chiqqan. Litva davlati uchun asosiy muammo Rossiyaning eksklavi hisoblangan Kaliningrad viloyatiga harbiy va fuqarolik tranziti hisoblangan. Mustaqil O'zbekiston davlatining ham Qirg'iziston hududida eksklav hududlari mavjud va bu masalada O'zbekiston hukumati muammolarni hal qilishga erishgan. O'zbekiston bu masalada qo'shnilar bilan bosqlik asosida muloqotga ochiqlik tamoyili asosida ish tutgan. Litva G'arb integratsiyasiga intilishi tufayli chegara bo'yicha Rossiya Federatsiyasi bilan Kaliningrad masalasida tezroq kelishuvga erishishdan manfaatdor bo'lgan. Boltiqbo'yi davlatlarining tashqi siyosati va xalqaro munosabatlarda ishtirokiga oid tadqiqotlar O'zbekistonda hozirga qadar kam amalga oshirilgan. Shuning uchun bu maqolada Litvaning Kaliningrad masalasida Rossiya bilan munosabatlari tahliliga e'tibor qaratildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuni o'rganish jarayonida ko'plab xorijiy tildagi adabiyotlarga murojaat qilindi. Bu adabiyotlarning ba'zilar ilmiy jurnal yoki to'plamlarda e'lon qilingan maqolalar bo'lsa, ba'zilar mualliflar tomonidan yozilgan kitoblar hisoblanadi. Ushbu maqolada mavzuni o'rganishda rus tadqiqotchilari Semyon Boykov va Aleksandr Sitin, ingliz tarixchilari Helen Mey Morris, Domitilla Sagramoso, Kaliforniyadagi Harbiy aspiranturada ilmiy ish yoqlagan Timoti Trampenau, Indiana Universitetida siyosiy fanlar bo'yicha professor Julius Smulkstis, Finlandiyaning Helsinki Universiteti professori Laura Eleanora Kaupilla, Finlandiyalik harbiy Ari Puheloynen, Belgiyaning Gent universiteti professori Peter van Elsuvege, Yevropa Ittifoqining xavfsizlik tadqiqoti bo'yicha institutida tadqiqot olib borgan shved olimi Olav Knudsen, litvalik tadqiqotchi Kestutis Paulauskaslarning ilmiy tadqiqotlariga murojaat qilindi.

Yuqoridagilardan bilishimiz mumkinki, bu mavzuga oid tadqiqotlar, asosan, chet elda amalga oshirilgan bo'lib, yurtimizda tarixchilar tomonidan Boltiqbo'yi davlatlarining xalqaro munosabatlari deyarli o'rganilmagan. Demak, O'zbekiston bilan bir vaqtlar bitta ittifoq tarkibida bo'lgan davlatlarning mustaqil taraqqiyot yo'li va ularning xalqaro munosabatlarda ishtirokini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlarda bo'shliqlar mavjud. Bu mavzuda tadqiqotlarni davom ettirish kerak, chunki bu davlatlarning iqtisodiy taraqqiyotda erishgan yutuqlari va xalqaro maydonda o'z o'rinlarini topib

borishining o'rganiladigan jihatlari ko'p.

Mavzuning dolzarbligidan kelib chiqqan holda bu maqolada muallifning ushbu yo'nalishdagi tadqiqotining bir qismini natijalari aks ettiriladi. Ushbu maqolada asosiy maqsad Litva - Rossiya munosabatlarida Kaliningrad muammosining o'rni va bunda tomonlar qanday yo'l tutganini tushunib yetishdan iborat. Ushbu davrdagi Rossiya bilan munosabatlar tarixini ochib berish orqali bundan keyingi tadqiqotlarga dastlabki qadamni qo'yish, keyingi davrlardagi bu davlatlarning tashqi siyosati qanday yo'nalishda ketishini ildizlarini topish ham ushbu tadqiqotning vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bizga ma'lumki, mustaqillikka erishgan Boltiqbo'yi davlatlari Rossiya Federatsiyasi bilan munosabatlarda turli muammolarga duch kelgan. Estoniya va Latviya, asosan, rusiyabon aholi va chegara hududlar bilan bog'liq muammolarga duch kelgan bo'lsa, Litvaning eng asosiy muammosi Rossiyaning eksklavi (eksklav – boshqa davlat hududida joylashgan biror bir davlatning hududi) hisoblangan Kaliningrad viloyatiga fuqarolar va mahsulotlarning tranziti masalasi edi.

Agar Estoniya va Latviyaga ta'sir o'tkazish uchun Rossiya ozchilik huquqlarini himoya qilish masalasidan foydalangan bo'lsa, Kaliningrad viloyatiga fuqarolik va harbiy tranzit masalasi Rossiyaning Litva tashqi va xavfsizlik siyosatiga ta'sir ko'rsatish uchun vositasi bo'lgan[1]. Bu haqida shved olimi Olav Knudsen Rossiyaning Boltiq dengizi mintaqasidagi asosiy tashvishi Kaliningrad viloyatining maqomi borasida bo'lganligini yozadi. Rossiya Litva yoki Polshadan tranzit huquqlarini hal qilishni talab qilgan. Kaliningrad eksklavida esa ko'pchilik harbiy va fuqarolik siyosiy doiralar iqtisodiy rivojlangan hududdan harbiy majmuaga ehtimoliy o'zgartirilishiga qarshi bo'lishgan[2]. Yana bir tarixchi Domitilla Sagramoso esa Boltiqbo'yi davlatlari Rossiyaning Kaliningrad eksklavi va G'arb bozorlariga olib chiqadigan hududda joylashgani uchun ular bilan munosabatlar katta ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaydi[3]. Amerikalik tadqiqotchi Timoti Trampenau ham Boltiqbo'yi davlatlari Kaliningrad viloyatini Rossiyaning qolgan qismidan ajratib turgani uchun milliy xavfsizligida muhim rol o'ynashini, shuning ruslar bu mintaqa ularning ta'siri ostida bo'lishi kerak deb hisoblashini aytib o'tgan[4].

Rossiyaning Kaliningrad viloyati bo'yicha asosiy maqsadi bu hududga hech qanday to'siqsiz bog'lanish huquqini qo'lga kiritish bo'lgan holsa, hududning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi ikkinchi darajali masala bo'lgan. Rossiya rasmiylari Kaliningrad viloyatini "Rossiyaning Yevropadagi fasadi" yoki "Yevropa Ittifoqi-Rossiya hamkorligida bog'lovchi hudud" sifatida ta'riflashgan[5].

1990-yillarning boshida Kaliningrad Rossiya uchun Markaziy Yevropaga ta'sir o'tkaza oladigan istehkom – harbiy post sifatida ahamiyatga ega bo'lgan. Litvaning xavfsizlik siyosatini ishlab chiqishda Kaliningrad viloyatini kuchli harbiylashtirilganligini ham hisobga olish zarur edi[6]. Atrofidagi davlatlardan ko'chirilgan harbiylarning bir qismi Kaliningradga joylashtirildi. Rus harbiy rahbariyati hattoki agar NATO kengayish rejalarini davom ettiradigan bo'lsa taktik yadro qurollarini hududga joylashtirishni ham o'ylab ko'rdi. Lekin Rossiyaning asosiy hududidagi iqtisodiy retsessiya o'zining ta'sirini o'tkazishni boshladi va 1998-yilgacha Kaliningrad viloyatidagi harbiylar soni kamaytirildi. Moskva hukumati Polsha va Boltiqbo'yi davlatlariga ularning NATOga a'zo bo'lmasligi evaziga Kaliningradni demilitarizatsiya (demilitarizatsiya – ma'lum bir hududni to'liq harbiysizlantirish) qilishni taklif qilishdek jiddiy qadamni tashladi[7]. Boltiqbo'yi davlatlarining NATOga a'zo bo'lishi Rossiya xavfsizligi uchun jiddiy xavf solardi, chunki NATOning Rossiyaga yaqinligi Kaliningrad viloyatining izolyatsiya qilinishiga sabab bo'lardi. Bundan tashqari Rossiyaning eng asosiy psixologik va demografik markazi NATO bazalariga qisqa uchish masofasida joylashib qolardi. Sankt-Peterburgga dengiz yo'li va Boltiq dengizi orqali Yevropaga bog'lanish Estoniyadagi dengiz portlari blokadasini orqali shubha ostida qolardi. Rossiya harbiy yetakchilari buni qabul qilib bo'lmaydigan strategik holat deb hisobladi va Boltiqbo'yi davlatlariga NATOga a'zo bo'lmasligi uchun harbiy kuch bilan tahdid qildi. 900 ming aholisidan 300 mingi harbiy bo'lgan Kaliningrad viloyati omon qolishi uchun Litva orqali o'tadigan ta'minot tranzitiga tayangan. Rossiyaning shuning uchun ham Litvaning NATOga a'zo bo'lishidan qo'rqqan. Rus Boltiq floti uchun asosiy portlar Kaliningrad viloyatida joylashgani uchun ham Rossiya bu masalada qat'iy siyosat olib borgan. Rossiya tashqi ishlar vazirligi matbuoti 1994-yilda bu haqida "Kaliningrad Rossiya Federatsiyasining tarkibiy qismi bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Rossiyaning suverenitetiga bo'lgan har qanday hududiy kengayish nodo'stona harakat deb qabul qilinadi" deb bayonot berdi[8].

Tahlil va natijalar. Rossiya harbiy tranzit muammosini ko'tarish orqali Vilnyus hukumatiga Litva hududi orqali Kaliningrad viloyatiga nazorat qilinmaydigan fuqarolik va tranzit yo'lagi tashkil qilish

bo'yicha xalqaro shartnoma imzolashi uchun doim o'tkazdi. Litva bu talablarni o'zining hududida suveren huquqlarini xavf ostiga qo'yishga urinish sifatida ko'rdi. Vilnyus bu kabi shartnoma NATOga a'zolik istiqbolini xavf ostiga qo'yishi mumkinligidan tashvishlandi va Rossiyaning takliflarini rad etishda davom etdi. 1994-yilda Rossiya harbiylarining Kaliningrad viloyatiga va undan tashilishi Litvada milliy xavfsizlik uchun eng ko'p muhokama qilingan masala bo'ldi. Bir nechta rasmiy va norasmiy siyosiy uchrashuvlar va ilmiy konferensiyalarda shu masala muhokama qilindi. O'sha vaqtgacha Rossiya harbiylari Litva orqali Kaliningrad viloyatiga Litva va Rossiya o'rtasidagi kelishuvga ko'ra, Litva temiryo'l tarmog'i va Mukrandan Klaypedagacha bo'lgan parom orqali amalga oshirilardi. Bu kelishuv 1994-yil 31-dekabr gacha kuchga ega bo'ldi. Rossiya muddat yaqinlashgani sari yangi kelishuvga erishishga harakat qildi[9]. Litva hukmron doiralari orasida Rossiya bilan bu masalada kelishuvga erishish yaxshi qarshi olinmagan. Masalan, Litva Parlamentida muxolifat yetakchisi bo'lgan Landsbergis Brazauskas hukumatini mamlakatni "qayta sovetlashtirish"da ayblagan. Bu Kaliningrad tranziti masalasi va bank tizimining siyosiy lashtirilishi bilan bog'liq edi[10]. Rossiyalik tadqiqotchilardan biri A.N.Sitin, Litvadagi Rossiyaga nisbatan siyosiy qarashlarni antirossiya harakati deb ataydi. Moskva va Vilnyus o'rtasidagi yaxshi qo'shniçilik munosabatlariga Kaliningrad viloyatining strategik xavfsizligi va to'siqsiz transit masalalari muammo bo'lgan[11].

Litva hukumati 1994-yilda o'zining hududi orqali harbiy va zararli materiallarning tranzitiga mahalliy cheklovlarni qabul qildi. Rossiya quruqlik orqali Kaliningradga tranzitga muhtoj bo'lgani uchun ham bu bir tomonlama qarorni qabul qilishni xohlamadi. Garchi Rossiya ikki tomonlama shartnoma imzolash uchun muzokaralarni qaytadan boshlashga harakat qilgan bo'lsa-da, Litva Rossiyaning urinishlarini barbod qilishda muvaffaqiyatga erishdi. Bugungi kunda Rossiyaning harbiy tranziti Litvaning mahalliy qoidalari asosida faoliyat ko'rsatishda davom etadi[12]. Kaliningrad tranziti masalasida Litvaning Rossiya bilan kelishuvi 1995-yildagina imzolandi. Bu jarayonlar siyosiy istaklarning iqtisodiy bosimlar bilan birlashib ketishini ko'rsatgan. Rossiya uchun iqtisodiy foyda keltirmasa-da, Rossiya Boltiqbo'yi davlatlaridan importni cheklashga harakat qilgan[13].

Rossiya hukumati Kaliningrad viloyati hududidan Boltiqbo'yi davlatlarining NATOga a'zo bo'lishiga qarshilik qilish maqsadida ham foydalangan. Masalan, 1995-yil sentabr oyida qabul qilingan yangi mudofaa doktrinasida NATOning kengayishiga javoban Kaliningrad va Belarusga Rossiyaning taktik yadro qurollarini joylashtirish orqali javob qaytarishi bilan ogohlantirdi. Yanada aniqrog'i, agar Boltiqbo'yi davlatlari NATOga a'zo bo'lsa, Rossiya qo'shinlari ularni bosib olishi va bunga NATOning har qanday javobi yadro urushini anglatardi[14].

Kreml hukumatining Kaliningrad viloyatiga nisbatan yuritgan siyosatida liberal islohotlar o'tkazish orqali hududning iqtisodiy tajriba mintaqasiga aylantirilishi ham ko'zda tutilgan edi. 1991-yilda Rossiya Kaliningrad viloyatiga Erkin Iqtisodiy Zona maqomini bergan bo'lsa, 1996-yilda u Maxsus Iqtisodiy Zonaga o'zgartirildi. Hech qaysi loyiha hududning iqtisodiy taraqqiyotida katta yaxshilanishiga olib kelmadi – "Boltiq Gongkongi" loyihasi amalga oshmadi. O'sha vaqtgacha Vilnyus Kaliningradni G'arb-Sharq aloqalarining rivojlanishida iqtisodiy ko'priç bo'lishi mumkinligi g'oyasini ilgari surgan edi. Litva diplomatlari "Kaliningrad muammosi"ni Yevropaning Rossiya bilan aloqalarini yaxshilashga imkoniyat sifatida qarash kerak deb bahslashganlar. 1990-yillarning oxirigacha Kaliningrad, va nihoyat, YI va Boltiq davlatlari Kengashining dasturiga kiritildi. Rossiyaning dastlabki reaksiyasi ijobiy edi. Vilnyus va Moskva hatto bir nechta iqtisodiy loyihalardan iborat umumiy "Nida tashabbusi"ni yo'lga qo'ydi[15]. 1997-1999-yillarda "Neman", "Baltika" va "Saule" deb ataluvchi uchta yevroregionlar tashkil etildi va ulardan birida Kaliningrad viloyati ham ishtirok etdi[16].

Kaliningrad masalasining hal qilinishi Rossiya uchun o'z qo'shinlarini olib chiqish masalasidagi muzokoralarda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Rossiya Federatsiyasi Litva bilan Kaliningradga tranzit yo'lagini yaratish masalasida muzokara olib borganda, qo'shinlarni olib chiqish masalasini ham hal qildi. Bu Litvaga boshqa Boltiqbo'yi davlatlariga nisbatan Rossiya bilan munosabatlarda ustunlik bergan. Chunki, Estoniya va Latviyadan bir yil oldin 1993-yildayoq sobiq Sovet qo'shinlari Litva tuprog'ini tark etdi. Litva ko'chirilayotgan harbiy kuchlarni turar joy bilan ta'minlashga ham rozi bo'ldi. Litva bilan bu masaladagi kelishuv Rossiya tomonidan Estoniya va Latviyaga ham shunday mazmunda bitim imzolashi uchun bosim qilinishiga asos bo'ldi[17].

Rossiyaning Kaliningrad masalasida yana bir maqsadi Boltiqbo'yi davlatlariga bog'liq bo'lmagan holda o'ziga qulayliklar yaratish edi. Dengiz portlarini kengaytirishda Baltiisk Kaliningrad viloyatiga qulay nuqta bo'lishi mumkin edi. Kaliningrad bilan normal quruqlik orqali bog'lanishni yo'lga qo'yish, shubhasiz, Rossiya uchun Boltiqbo'yi davlatlari bilan munosabatlarda muhim masala

hisoblangan[18].

Kaliningrad masalasi Boltiqbo‘yi davlatlarining YI ga a‘zolik maqomini olishga to‘sqinlik qilgan muammolardan biri ham hisoblangan. YI o‘zining hududidan o‘tadigan barcha fuqarolarga Shengen viza olishni talab qilardi, Rossiya esa Kaliningrad hududiga o‘tishda vizasiz tizim va erkin savdo yo‘laklari ochishni xohlagan. Aynan shu masala ham Rossiyaning YI ga ta‘sir o‘tkaza olishiga imkon bergan. 2002-yil YI-Rossiya sammitida bu masalada kelishuvga erishish mumkin edi[19]. Lekin bu masalada yakuniy kelishuvga erishish har ikki tomon uchun ham qiyin bo‘lgan.

Xulosa va takliflar. Kaliningrad masalasida Litva-Rossiya munosabatlarini o‘rganish orqali quyidagi xulosalar olindi:

1) Litva-Rossiya munosabatlarida eng katta muammo, shubhasiz, Kaliningrad tranziti masalasi bo‘lgan;

2) Litvada hukmron doiralarning ko‘pchiligi o‘z hududidan Rossiya harbiy yuklarining Kaliningradga erkin harakat qilishiga qarshi bo‘lgan. Chunki ular bu holatni o‘z xavfsizligiga tahdid deb hisoblagan;

3) Litvaning NATO va YIga a‘zo bo‘lishiga to‘siq bo‘lgan omillardan biri aynan Kaliningrad muammosi edi;

4) Kaliningrad viloyati xavfsizligi va unga tranzit masalasi Rossiya uchun muhim ahamiyat kasb etgan, chunki bu hudud ham harbiy-siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan qulay geografik o‘ringa ega edi;

5) Rossiya Kaliningrad hududidan Boltiqbo‘yi davlatlarining NATO va YIga a‘zo bo‘lishiga to‘sqinlik qilish yo‘lida ham foydalangan;

6) Rossiya Kaliningrad viloyatida bir nechta iqtisodiy loyihalarni ham amalga oshirishga harakat qilgan lekin kutilgan natijalarga erisha olmagan;

7) Kaliningrad tranzitining hal qilinishi Litvaga boshqa Boltiqbo‘yi davlatlariga qaraganda tezroq Rossiya qo‘shinlarini olib chiqib ketilishi masalasini hal qilishda qulayliklar yaratgan;

8) Rossiya Kaliningrad tranzitini hal qilish orqali o‘ziga qulay yo‘llarni yaratishga harakat qilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kestutis Paulauskas. The Baltics: from nation states to member states. – Paris, 2006. – P.14.
2. Olav F.Knudsen. Cooperative security in the Baltic Sea region. – Alençon: Imprimerie Alençonnaise, 1998. – P.6.
3. Domitilla Sagramoso. Russia’s geopolitical orientation towards former Soviet States. Was Russia Able to Discard its Imperial Legacy? – London, 2000. – P.8.
4. Timothy R. Trampenau. NATO expansion and the Baltic states. Thesis. – California: Dudley Knox Library, 1996. – P.15.
5. Kestutis Paulauskas. The Baltics: from nation states to member states. – Paris, 2006. – P.15.
6. The Baltic states: search for security. – Riga: Latvian Institute of International Affairs, 1996. – P.60.
7. Kestutis Paulauskas. The Baltics: from nation states to member states. – Paris, 2006. – P.15.
8. Timothy R. Trampenau. NATO expansion and the Baltic states. Thesis. – California: Dudley Knox Library, 1996. – P.89.
9. The Baltic states: search for security. – Riga: Latvian Institute of International Affairs, 1996. – P.71.
10. Julius Smulkstys. Brazauskas in power: an assessment // Demokratizatsiya: The Journal of post-soviet democratization, Issue 2. – Washington DC, 1994. – P.263.
11. Сытин А.Н. Внешняя политика Литвы на современном этапе // Вестник РУДН, серия Международные отношения, № 4. – Москва, 2010. – С.66.
12. Kestutis Paulauskas. The Baltics: from nation states to member states. – Paris, 2006. – P.15.
13. Каупила L. The Baltic puzzle: Russia’s policy towards Estonia and Latvia 1992-1997. – Helsinki, 1999. – P.81.
14. Timothy R. Trampenau. NATO expansion and the Baltic states. Thesis. – California: Dudley Knox Library, 1996. – P.112.
15. Kestutis Paulauskas. The Baltics: from nation states to member states. – Paris, 2006. – P.15.
16. Семен Бойков. Эволюция внешней политики России в отношении стран Балтии на современном этапе // Проблемы постсоветского пространства. №7. – М., 2020. – С.394.
17. Helen May Morris. External actors and the evolution of Latvian national policy 1991-1999. Thesis submitted in partial fulfillment for the requirements for the degree of D.Phil. in International Relations in the Division of Social Sciences at the University of Oxford. – Oxford, 2001. – P.155.
18. Ari Puheloinen. Russia’s geopolitical interests in the Baltic area. – Helsinki: National defence college, 1999. – P.78.
19. Peter Van Elsuwege. The impact of EU enlargement on the triangular relationship between the EU, Russia and the Baltic states / European Union enlargement of 2004 and beyond: responding political, legal and socio-economic challenges. – Riga, 2006. – P.6.